

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA DANIYA, FINLANDIYA VA NARVEGIYA DAVLATLARINING TAJRIBISANI O'RGANISH VA O'ZBEKISTONGA TADBIQ QILISH

Aktamova Zulfizar Utkir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat” yo‘nalishi 1-kurs magistranti.

e-mail: zulfizaraktamova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14078692>

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Shveysariya, Finlandiya va Norvegiya tajribasini o'rganish va uni O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda qo'llash" nomli maqola dunyodagi eng kam korrupsiyalangan davlatlar qatoriga kiruvchi Shveysariya, Finlandiya va Norvegiya davlatlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi tajribalarini chuqur tahlil qiladi. Maqolada ushbu mamlakatlarda korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilgan huquqiy, institutsional va ijtimoiy mexanizmlar solishtirma yondashuv asosida ko'rib chiqilgan. Mualliflar shaffoflik mexanizmlari, fuqarolik jamiyatining ishtiroki va hukumat nazorati samaradorligi kabi asosiy omillarni muhokama qilishadi. Maqolada, shuningdek, ushbu strategiyalarning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi imkoniyatlari tahlil qilinib, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muhitiga mos keluvchi amaliy tavsiyalar berilgan. Ushbu tadqiqot, xalqaro ilg'or tajribalarni qo'llash orqali korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirishni istagan siyosatchilar va tadqiqotchilar uchun qimmatli manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat boshqaruvi, antikorrupsion strategiya, shaffoflik, xalqaro tajriba, islohotlar, xalqaro tashkilotlar, davlat xizmatchilarining axloqi, davlat tuzilmalari, boshqaruv samaradorligi, korrupsion indikator, xalqaro hamkorlik, boshqaruvni modernizatsiyalash.

STUDYING THE EXPERIENCE OF DENMARK, FINLAND AND NORWAY IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION AND IMPLEMENTING IT TO UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the concepts of corruption and anti-corruption efforts, as well as issues of accountability for corruption-related crimes. Based on the experience of the top four countries with the lowest levels of corruption, as identified by Transparency International, the preventive measures being implemented to combat corruption are examined. Specifically, the legislative documents of Denmark, Finland, and Norway were studied and analyzed. Additionally, the application of these advanced practices to the Republic of Uzbekistan is discussed. The study presents practical recommendations and scientific conclusions derived from the experience of other countries in addressing accountability for corruption-related crimes.

Keywords: corruption, corruption-related crimes, combating corruption, public administration, Anti-corruption strategy, transparency, international experience, reform, international organization, ethics of servant, state structure, governance efficiency, corruption indicator, international cooperation, modernization of governance.

ИЗУЧЕНИЕ ОПЫТА ДАНИИ, ФИНЛЯНДИИ И НОРВЕГИИ ПО БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ И ВНЕДРЕНИЕ ЕГО В УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье «Изучение опыта Дании, Финляндии и Норвегии в борьбе с коррупцией и его применение в Узбекистане» проводится углубленный анализ антикоррупционных стратегий, применяемых в Дании, Финляндии и Норвегии — странах, стабильно занимающих ведущие позиции в рейтинге наименее коррумпированных государств

мира. На основе сравнительного подхода рассматриваются правовые, институциональные и социальные механизмы, способствующие снижению уровня коррупции в этих странах. Особое внимание уделяется механизмам прозрачности, роли гражданского участия и эффективности государственного надзора. В статье также изучается применимость данных стратегий в узбекском контексте и предлагаются практические рекомендации, адаптированные к особенностям социально-политической и экономической среды Узбекистана. Данное исследование представляет собой полезный ресурс для политиков и исследователей, стремящихся усилить антикоррупционные меры в странах с переходной экономикой, заимствуя международный опыт.

Ключевые слова: коррупция, коррупционные преступления, борьба с коррупцией, государственное управление, антикоррупционная стратегия, прозрачность, международный опыт, реформы, международные организации, этика государственных служащих, государственные структуры, эффективность управления, индикаторы коррупции, международное сотрудничество, модернизация управления.

KIRISH

Korrupsiya bugungi kunda dunyo miqyosida keng tarqalgan va barqaror taraqqiyot, ijtimoiy adolat hamda iqtisodiy samaradorlikka jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Muhtaram Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"[1]. Chindan ham, korrupsiyaviy jinoyatlar davlatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, shu bilan birga xalqning davlat organlariga nisbatan ishonchini pasaytiradi[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z faoliyatining ilk kunlaridan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator qonun va qonunosti hujjatlarini qabul qildi.

Xususan, 2017-yil 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-sonli Qonun kuchga kirdi. Ushbu qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi va ushbu faoliyatni tartibga solish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini shakllantirish imkonini yaratdi. Mazkur qonunning 3-moddasida korrupsiya tushunchasi ta'riflangan bo'lib, unga ko'ra, korrupsiya — shaxsning o'z xizmat yoki mansab mavqeidan shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini yo'lida moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga zid ravishda foydalanishi yoki boshqa shaxsga qonunga zid tarzda naf taqdim etishidir [3].

Korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda boshqaruv tizimlari zaiflashadi, iqtisodiy o'sishga to'siq paydo bo'ladi va aholining davlat institutlariga bo'lgan ishonchi pasayadi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish ko'plab davlatlar uchun ustuvor vazifa bo'lib, xalqaro tajribadan samarali strategiyalarni o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Daniya, Finlandiya va Norvegiya davlatlari Transparency Internationalning Korrupsiya darajasini his qilish indeksida yuqori o'rinlarni egallagan mamlakatlar bo'lib, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurashishdagi tajribasi bilan ajralib turadi. Ushbu davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalari, jumladan, shaffoflik, mustahkam huquqiy mexanizmlar va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki boshqa davlatlar uchun qimmatli model vazifasini bajaradi.

Ushbu maqola Daniya, Finlandiya va Norvegiyaning korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalarini o'rganib, ularning O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishni maqsad qilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston o'z iqtisodiy va siyosiy islohotlarini jadallashtirar ekan, korrupsiyaga qarshi kurash davlat boshqaruvining muhim yo'nalishiga aylangan. Xususan, O'zbekiston hukumati xalqaro tajriba asosida korrupsiyaga qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishga katta e'tibor bermoqda. Mazkur maqola esa O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda Daniya, Finlandiya va Norvegiyaning muvaffaqiyatli tajribasiga asoslangan amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Maqolaning asosiy qismi Daniya, Finlandiya va Norvegiyaning korrupsiyaga qarshi kurashda qo'llagan asosiy yondashuvlarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Birinchi bo'limda Daniya tajribasi o'rganiladi, bunda korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik ishtiroki va shaffoflik ta'minlash omillari ko'rib chiqiladi. Daniya ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining faol roli orqali davlat institutlarini nazorat qilish mexanizmlarini yaratgan, bu esa korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi bo'limda Finlandiyaning korrupsiyaga qarshi huquqiy mexanizmlari, xususan, qat'iy qonunchilik va uning samarali ijrosi muhokama qilinadi. Finlandiyada huquq-tartibot organlari va qonunchilik tizimining o'zaro uyg'unligi korrupsiyani kamaytirishda muhim omil bo'lgan.

Uchinchi bo'lim esa Norvegiyaning korrupsiyaga qarshi boshqaruv va davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlik amaliyotlarini yoritib beradi. Norvegiyaning shaffof boshqaruv tizimi va iqtisodiy sohadagi korrupsiyaga qarshi choralar bu davlatda yuqori samaradorlikka olib kelgan.

Ushbu uch davlat tajribasining tahlili O'zbekiston uchun qimmatli darslar beradi.

O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy sharoitlarini hisobga olgan holda, Daniya, Finlandiya va Norvegiyadagi korrupsiyaga qarshi strategiyalarni moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ushbu strategiyalarning O'zbekiston sharoitida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va ularni yengish uchun tavsiyalar beriladi. Xususan, maqola O'zbekiston hukumatining korrupsiyaga qarshi kurashda qanday kompleks yondashuvlarni qo'llashi, shaffoflik va fuqarolik jamiyati ishtirokini kuchaytirish yo'nalishlarida qanday choralar ko'rishi mumkinligini ochib beradi.

Mazkur tadqiqot korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirishga qaratilgan bo'lib, bu O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi samarali kurash strategiyalarini shakllantirish uchun amaliy asos yaratishga hissa qo'shadi.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida huquqiy hujjatlar hamda ilmiy-nazariy manbalarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Unda sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashda rivojlangan mamlakatlarning tajribalari tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid tushunchalarni o'rganish bilan boshlanib, korrupsiyaga qarshi kurashda ilg'or davlatlar tajribasini tahlil qilish va ushbu tajribani milliy qonunchiligimizga joriy qilishga oid xulosalar bilan yakunlanadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tizimli va qiyosiy-huquqiy tahlil, shuningdek, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tarixiy-huquqiy va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida qiyosiy tahlil va holat tadqiqotlari usullari tanlandi, bu usullar orqali Daniya, Finlandiya va Norvegiya tajribalarini chuqur o'rganish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, kontent tahlili metodidan foydalanilib, xalqaro tashkilotlar va milliy huquqiy hujjatlar asosida korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalari o'rganildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida xalqaro tashkilotlar orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti alohida o'rin tutadi. BMT tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan hujjatlar orasida 2003-yil dekabr oyida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi Konvensiya muhim ahamiyatga ega[4]. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 2008-yil 7-iyulda qabul qilingan qonun asosida qo'shildi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda BMT bilan bir qatorda Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Butunjahon bojxona tashkiloti kabi tashkilotlar o'z faoliyatlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Korrupsiya, davlat boshqaruvining samaradorligini va iqtisodiy rivojlanishni sezilarli darajada pasaytiradigan omil sifatida, dunyoning ko'plab davlatlarida jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.

2023-yilda e'lon qilingan "Corruption Perceptions Index"(CPI) bo'yicha dunyo mamlakatlarning korrupsiya darajasi bo'yicha reytingi keltirilgan[5]. Ushbu reyting korrupsiyaning global miqyosda qanchalik jiddiy ekanligini, shuningdek, tegishli mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashishdagi samaradorlikni o'lchashga imkon beradi. Skandinaviya mamlakatlari, jumladan Daniya, Finlandiya va Norvegiya, yuqori o'rinlarda joylashib, bu mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi muvaffaqiyatlarini namoyon etadi. Daniya, Finlandiya va Norvegiya kabi Skandinaviya mamlakatlari, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashishda erishgan muvaffaqiyatlari bilan tanilgan. Ushbu mamlakatlar o'zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalarini, huquqiy va siyosiy tizimlarining samaradorligini isbotlab kelmoqda. O'zbekiston uchun bu tajribalarning qo'llanilishi katta ahamiyatga ega, chunki korrupsiyaga qarshi kurashishda yangi yondashuvlar va amaliyotlar zarur. Ushbu maqolada, yuqorida aytib o'tgan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash tajribalari tahlil qilinib, O'zbekistonda ularni qanday amalga oshirish mumkinligi ko'rsatiladi.

Daniya, o'zining yuqori darajadagi shaffoflik, fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvidagi ochiqlik bilan mashhur. Daniya odatda korrupsiya bilan bog'lanmagan. U xalqaro korrupsiya o'leovlarida juda yuqori natijalar ko'rsatadi va ko'plab mutaxassislar uning davlat sektori yuqori darajada halollikni namoyish etishini ta'kidlashadi. Fuqarolar va bizneslarning korrupsiya bilan bog'liq tajribalari bo'yicha so'rov ma'lumotlari ham bu holatni aks ettiradi, bunda poraxo'rlik bilan bog'liq xabarlar nisbatan past darajada. Shu bilan birga, Daniya o'zining korrupsiya bilan bog'liq muammolariga ega[6]. Yaqinda yuzaga kelgan janjallar mamlakatni e'tiborga olib chiqdi, masalan, eng yirik Daniya banki (Danske Bank)da amalga oshirilgan katta miqdordagi pul yuvishga qarshi tergov, shuningdek, axborot texnologiyalari xaridlarida ayblangan poraxo'rlik bo'yicha taniqli ish. Takrorlanuvchi muammo sohalariga xususiy sektor korrupsiyasi, siyosiy moliyalashtirish va Daniyaning chet el hududlari kiradi, bu esa o'ziga xos korrupsiya xavflarini tug'diradi. 2007-yildan boshlab, Daniya beshta ma'muriy hududga (daniya tilida regioner) va 98 ta munitsipalitetga (kommuter) bo'lingan. Ushbu beshta hududni milliy sog'liqni saqlash xizmati, ijtimoiy xizmatlar va hududiy rivojlanishga mas'ul bo'lgan hududiy kengashlar boshqaradi (Danish Regions 2012), shu bilan birga munitsipalitetlar shaharlardagi jamoat xizmatlari, masalan, chiqindilarni yig'ish, suv va kanalizatsiya kabi xizmatlar uchun javobgar bo'lgan munitsipal kengashlar tomonidan boshqariladi. Shuningdek, ikki avtonom boshqariladigan hudud mavjud: 1948-yilda o'zini o'zi boshqarish huquqi berilgan Farer orollari va 1979-yilda o'zini o'zi boshqarish huquqi, 2009-yilda esa yanada kengaytirilgan avtonomiya berilgan Grenlandiya.

1973-yilda Daniya Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining (keyinchalik Yevropa Ittifoqi) a'zosiga aylandi va o'zining milliy valyutasi — krone-ni saqlab qoldi[7]. Daniyada davlat organlari faoliyatining barcha bosqichlari fuqarolar uchun ochiq va aniq bo'lib, bu mamlakatda korrupsiya darajasi juda past.

Daniyada korrupsiyaga qarshi kurashishda eng muhim jihat, davlat va jamoat sektori o'rtasidagi samarali hamkorlikdir. Fuqarolar va jamoat tashkilotlari davlatning har bir qarori va harakati haqida xabardor bo'lishi kerak.

Daniya tajribasida shuningdek, davlat xizmatchilarining yuqori malakasi va qat'iy tartib-qoidalarga amal qilish muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat xizmatchilarining malakasini oshirish, axloqiy va huquqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish masalasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Bu, davlat organlarida ishlovchi shaxslarning professional darajasini oshirishga yordam beradi va ularning huquqiy va axloqiy jihatdan to'g'ri ishlashini ta'minlaydi.

Finlandiya davlatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi tajribasi juda samarali hisoblanadi. Finlandiyada kuchli qonunchilik bazasi, korrupsiyaga qarshi qat'iy qonunlar va ularning ijrosi samarali amalga oshiriladi. Bu qonunlarning hamma uchun bir xil va qat'iy amal qilishini ta'minlash orqali, Finlandiya korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirishga erishgan. Finlandiya qonunchiligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy me'yorlar va jarimalar mavjud[8]. Masalan: Finlandiyaning 2010-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish" to'g'risidagi maxsus qonun, ya'ni "Criminal Code of Finland" ning korrupsiyaga qarshi kodifikatsiyasini qabul qildi. Ushbu qonun davlat xizmatchilari va xususiy sektor xodimlarining korrupsiya jinoyatlari bilan shug'ullanishini jiddiy tartibga soladi. Korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni sodir etganlarga qattiq jazolar, jumladan, 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va katta miqdorda moliyaviy jarimalar belgilangan[9].

Anti-Corruption Strategy for Finland 2021–2025 hujjatidan quyidagi asosiy ma'lumotlarni olish mumkin[10]:

1. Korrupsiyaga qarshi strategiya va tizim ya'ni Finlandiyaning korrupsiyaga qarshi strategiyasi, mamlakatda korrupsiyani kamaytirish bo'yicha amalga oshiriladigan asosiy harakatlarni va maqsadlarni o'z ichiga oladi. Bu strategiya korrupsiyaga qarshi qonunchilikni kuchaytirish, davlat organlarining shaffofligini oshirish, hamda fuqarolik jamiyati va biznes sektori bilan hamkorlikni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda ham shu kabi tizimli yondashuv joriy etilganligi davlat boshqaruvining ochiqqligi va hisobotlarini ta'minlashda katta yordam beradi.

2. Shaxsiy va davlat resurslarining javobgarligida Finlandiyaning korrupsiyaga qarshi strategiyasida shaxsiy va davlat resurslarining qanday qilib shaffof boshqarilishi kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar berilgan. Ular davlat xizmatchilarining xatti-harakatlarini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortish tizimini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

3. Strategiya, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun yuridik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Finlandiya davlat tizimida xususiy sektorga ta'sir qiluvchi davlat qonunlarini, shuningdek, rasmiy nazorat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi vazifalarini belgilaydi.

Finlandiya tajribasida yana bir muhim jihat – fuqarolarni xabardor qilish va ta'lim berish tizimi rivojlanganligi. Maktablar va oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus dasturlar, axloqiy qadriyatlarni o'rgatish tizimi ishlab chiqilgan.

Bu kabi ta'lim dasturlari yosh avlodni halollik va to'g'ridan-to'g'ri faoliyatga tayyorlaydi. O'zbekistonda ham yoshlarni axloqiy tarbiya va huquqiy savodxonlikka o'rgatish orqali, kelajakda korrupsiyaning oldini olishga yordam berish mumkin.

Yirik o'quv muassasalarida korrupsiya va uning iqtisodiy va ijtimoiy zararlarini tushuntirish, ta'lim jarayoniga integratsiya qilish kerak.

Norvegiya tajribasi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat va biznes sektori o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, shaffof iqtisodiy faoliyatni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Norvegiyada, masalan, davlat tenderlari va davlat xarajatlari shaffof va aniq ravishda amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham davlat va biznes o'rtasidagi aloqalar ko'pincha noaniq va shaffof bo'lmagan, bu esa korrupsiyaning o'sishiga sabab bo'ladi. Shu bois, davlat va biznes sektori o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, shaffof iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish zarur.

Shuningdek, Norvegiya tajribasida davlat va xususiy sektor faoliyatini tizimli ravishda monitoring qilish va nazorat qilish muhim rol o'ynaydi. Bu institutlar davlat va xususiy sektor faoliyatini tahlil qilib, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalarini amalga oshirishga yordam beradi.

"ECD Guidelines on Anti-Corruption and Integrity in the Public Sector" hujjatida davlat sektori va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qanday strategiyalarni amalga oshirishi kerakligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Bu hujjat, davlat boshqaruvini shaffof va javobgar qilish, korrupsiyaga qarshi qat'iy qonunlar va tartiblarni belgilash, shuningdek, davlat xizmatchilarining axloqiy va professional standartlarga rioya qilishini ta'minlashni ko'zda tutadi. O'zbekistonda ham aynan shu strategiyalarni amaliyotga joriy qilish, davlat xizmatchilarining axloqiy malakasini oshirish va davlat organlarining faoliyatini shaffof qilish zarurati ta'kidlangan[11]. OECD qo'llanmasida, shuningdek, davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishda qanday qilib qonunchilikni kuchaytirishi va huquqni muhofaza qilish tizimini yaxshilash lozimligi haqida gapiriladi. Bunga davlat organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasida samarali hamkorlik, shuningdek, korrupsiyani aniqlash va unga qarshi kurashishda maxsus organlar tuzish kiradi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishda shunday tashkilotlar va institutlar tuzilishi lozim. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro hamkorlik bilan bog'liq jihatlari ham ko'rib chiqilgan. Bu, xususan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. O'zbekistonda ham xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash va ularning tajribasidan foydalanish orqali korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish mumkin.

World Development Indicators 2023 hisobotida, iqtisodiy rivojlanish va korrupsiya o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Korrupsiya davlatlar iqtisodiy o'sishiga, xususan, investitsiyalarni jalb qilish, davlat xizmatlarining samaradorligi va resurslarning adolatli taqsimlanishi kabi sohalarida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar, O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini korrupsiyaning kamaytirilishi orqali yaxshilash uchun muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi. Shuningdek, global iqtisodiy indikatorlar va davlatlarning o'zaro taqqoslanishi haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvaffaqiyatli davlatlarni, masalan, Skandinaviya mamlakatlarini, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan birga tahlil qilish imkonini beradi. O'zbekistonda bu kabi muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish va tatbiq etish iqtisodiy rivojlanishni va korrupsiyaga qarshi kurashni mustahkamlashga yordam beradi. World Development Indicators ma'lumotlarida davlat xizmatlarining sifatini oshirish va davlat resurslarini samarali taqsimlash muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan[12].

O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda xuddi shunday yondashuvlardan foydalanish mumkin.

United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC) ning Corruption and Anti-Corruption hujjatida korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati ta'kidlangan. Bunda, BMTning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha taqdim etgan yondashuvlari va xalqaro standartlari ko'rsatilgan. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish va samarali yondashuvlarni tatbiq etish O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi. UNODC hujjatida korrupsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'siri haqida gapiriladi. Korrupsiya davlat organlarining samarali ishlashiga to'sqinlik qiladi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va fuqarolarning ishonchini pasaytiradi. UNODC tomonidan ishlab chiqilgan UN Convention against Corruption (BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi) asosan korrupsiyaga qarshi oldini olish va unga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Bu jarayonda davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi, o'zaro yordam va o'zgaruvchan qonunchilik tizimlarini yaratish muhimdir[13]. (United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). (2022). Corruption and Anti-Corruption. United Nations. <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/>).

Xulosa

Daniya, Finlandiya va Norvegiya kabi mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tajribalari, albatta, O'zbekiston sharoitida ham samarali qo'llanilishi mumkin. Ushbu davlatlarning tajribalari, xususan, davlat boshqaruvidagi ochiqlik, korrupsiyaga qarshi qat'iy qonunchilik va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki, O'zbekiston uchun foydali yo'l-yo'riqlarni taqdim etadi. O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish uchun davlat organlarining faoliyatini shaffof qilish, fuqarolarni xabardor qilish tizimini rivojlantirish, huquqni muhofaza qilish organlari va davlat xizmatchilarining malakasini oshirishni takomillashtirish, shaffof iqtisodiy faoliyatni ta'minlash kabi choralarni amalga oshirishi lozim. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalarini amalga oshirishni davom ettirishi, korrupsiyani kamaytirishga katta yordam beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun barcha ijtimoiy qatlamlarning birlashishi zarur bo'lib, bu yo'lda davlat va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi harakatlari muhim ahamiyatga ega. Barcha yuqorida ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonga quyidagi takliflarni berish mumkin:

Birinchidan, Davlat Boshqaruvidagi Ochiqlikni Kuchaytirish: O'zbekiston davlat boshqaruvini shaffof qilish va ochiqlikni ta'minlash uchun raqamli platformalardan keng foydalanishni takomillashtirish. Masalan, davlat xarajatlarini, tenderlar va boshqa muhim qarorlarni jamoatchilikka onlayn tarzda taqdim etish, fuqarolarga bu borada to'liq ma'lumotlar berish, ularning fikrini olish va shunday qarorlarni qabul qilishda ishtirokini ta'minlash kerak. Shaffoflikning ta'minlanishi korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi va davlat organlarining javobgarligini oshiradi.

Ikkinchidan, Xalqaro Hamkorlikni Kuchaytirish: O'zbekiston xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlashi, ularning tajribasidan foydalanish orqali o'zining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirishi mumkin. Xususan, OECD, BMT, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda maxsus treninglar va maslahatlar tashkil etish, global standartlarga asoslangan yondashuvlarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etishni davom ettirishi zarur.

Uchinchidan, O'zbekiston jamoatchiligini korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etishga chaqirish zarur. Ommaviy axborot vositalari va xalqaro tashkilotlar yordamida jamoatchilikni xabardor qilish va aholi o'rtasida korrupsiyaga qarshi ongli munosabatni shakllantirish kerak. Bu orqali davlatning korrupsiyaga qarshi kurashdagi ishonchliligi va samaradorligi oshadi.

To'rtinchidan, O'zbekiston davlatida, Finlyandiya kabi, amaldagi jinoiy kodeksga korrupsiyaga qarshi qo'shimchalar kiritish kerak. Bu qonunlar korrupsiyaga aloqador jinoyatlarni qat'iy nazorat qilish, hukumat amaldorlari va xususiy sektor xodimlarining jinoyatlari bo'yicha tegishli jazolarni belgilashga xizmat qiladi.

PREFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis);
2. Авдеев В.А., Авдеева О.А. Стратегические направления противодействия коррупции в РФ // Российская юстиция. 2016. № 7. С. 19–21. (Strategic directions for combating corruption in the Russian Federation. Avdeev V.A., Avdeeva O.A.);
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008> / (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption);
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi. // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/-1461329> (United Nations Convention Against Corruption); URL:<https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nzl>);
5. Transparency International. (2023). Corruption Perceptions Index 2023. Transparency International. [Elektron manba]. URL: <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index>);
6. Transparency International. 2018c. Exporting Corruption – Progress Report 2018: Assessing Enforcement of the OECD Anti-Bribery Convention (Rep.). [Elektron manba]. URL: https://www.transparency.org/whatwedo/publication/exporting_corruption_2018);
7. Alhoej, E. 2016. Denmark's Fall from the AntiCorruption Throne. <http://www.engage-int.com/blog/denmarks-fall-anticorruption-throne-2/>);
8. (OECD (2019), Guidelines on Anti-corruption and Integrity in State-Owned Enterprises, www.oecd.org/corporate/Anti-Corruption-Integrity-Guidelines-for-SOEs.htm);
9. The Criminal Code of Finland (39/1889, amendments up to 927/2012 included https://sherloc.unodc.org/cld/uploads/res/document/fin/the-criminal-code-of-finland_html/Criminal_code_of_Finland.pdf);
10. (Finnish Ministry of Justice. (2021). Anti-Corruption Strategy for Finland 2021 2025. Finnish Government. [Elektron manba]. URL: https://julkaisut.valtioneuvosto.fi/bitstream/handle/10024/163398/VN_2021_68.pdf?sequence=1&isAllowed=y);
11. (OECD. (2022). OECD Guidelines on Anti-Corruption and Integrity in the Public Sector. OECD Publishing. [Elektron manba] [file:///C:/Users/user/Downloads/315dab91-en%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/315dab91-en%20(1).pdf));
12. World Bank. (2023). (World Development Indicators 2023. World Bank. [Elektron manba]. URL: <https://data.worldbank.org/>);
13. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). (2022). Corruption and Anti-Corruption. United Nations. <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/>).